

"O'zkiyosanoat" Ajda "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi

// 12.12.2024

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-ochiq-eshiklar-kuni-tadbiri-o-tkazildi>



Bugun "Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuniga bag'ishlab "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda jamoatchilik, OAV vakillari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimlari, yoshlar taklif etildi

Unda "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarmoq korxonalari faoliyati, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.



Ta'kidlash joiz, o'tgan 2023-yilda "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilgan sa'y-harakatlar yuqori baholanib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining davlat organlari va tashkilotlarida qorrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash indeksida 90 ball bilan 3-o'rin- "yashil" ko'rsatkichni qayd etdi.

Korrupsiyaning nafaqat davlatning yoki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun, balki har bir shaxsning hayotiga bo'lgan xavf ekani, jamoadagi ishchanlik muhitiga salbiy ta'siri haqida atroflicha to'xtalib o'tildi.



Tadbir yakunida ishtirokchilarning mavzuga oid savollariga atroflicha javoblar berildi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati